

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



BUXORO OZIQ OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI INSTITUTI

"Biznes va Boshqaruv" fakulteti

# REFERAT

Mavzu: Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobi

Bajardi:

To'raqulov BURXON  
18 – 06 MIQT guruh tolibi

Buxoro 2009

## **Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobi**

Reja

### **1. Rivojlangan iqtisodiy munosabatlar va “Direkt kosting”**

### **2. Yevropa davlatlari va AQShda “Direkt - kosting” tizimini rivojlantirilishi**

### **3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida "Direkt-kosting" tizimini qo'llashning zarurligi va qulayliklari**

#### **1. Rivojlangan iqtisodiy munosabatlar va “Direkt kosting”**

Iqtisodiy munosabatlar rivojlanishlari g'alaba qilganda bu g'alaba huquqiy tizimda, kredit pul munosabatlarida, va hisob metodologiyasida o'z aksini topadi. Xarajatlar har qanday iqtisodiy rivojlangan mamlakatni olaylik, bu yerda aksionerlar, kreditorlar, debitorlar, davlat apparati ma'muriyati korxonalarini va uning xizmatchilari o'zining iqtisodiy qiziqishlarini ketidan quvadilar. Bulardan xarajatlar qaysi bir guruhi bozorni iqtisodiy sharoitlarida daromad "pirog'i" ni kattaroq bo'lagini olishni xohlaydi. Bunga xarajatlar hisobi har xil yo'llari bilan erishiladi, shular qatori buxgalterlik metodologiyasi yordamida, shuningdek foydani buxgalter hisoblaydi. Bunga qo'shimcha qilib gap hisobot ma'lumotlarini bilib turib qalbakilashtirish haqida emas balki moliyaviy natijalarni xilma xil ahamiyatlariga olib keladigan hisob protseduralarini qonuniy va kelishilgan tanlovlari haqida borayapti. Aksionerlar yuqori foydaga qiziqadi, bu ularga foydali xo'jalikda kapitallarni ishonch bilan ushlab turishga imkon beradi yoki yuqori dividend olib o'ziga muxtojligi yo'q hayotni ta'minlaydi. Kreditorlar o'z qarzdorlarini yuqori foydasi haqida emas, ularning to'lashga qodirligi haqida o'ylanadilar va hammadan ham inflatsiyadan qo'rqadilar. Debitorlar aksincha inflatsiyani kutadilar, chunki pul birligi qancha kup qadrsizlansa ularga o'z qarzlari bo'yicha to'lovi shuncha kam tug'ri keladi. Davlatga korxonalarining yuqori foydasi qiziqarli, chunki bu byudjetga yuqori darajada kirimni ta'minlaydi. Korxonalar ma'muriyati qiziqishlari qarama-qarshi: bir tomondan yuqori foyda, ikkinchi tomondan yuqori soliqlar to'lashga majbur qiladi. Ammo bir vaqtda ba'zan qo'shimcha ish haqi bo'lishga imkon yaratadi. Boshqa tomondan yuqori foyda soliqlar sifatida korxonaning aylanma mablag'larini ko'zga ko'rinarli qismini olib qo'yadi va uni keyingi rivojlanshini qiyinlashtiradi. Korxonalar xizmatchilari maksimal ish haqidan manfaatdorlar. Ammo ular biladilarki ish haqini ikkita chegarasi bor: minimal-jamiyatni boshqa qatlami ehtiyojlari va maksimal-foydalanishning butun ko'lami. Bozor iqtisodiyotida qoida bo'yicha ish haqi firmaning pul daromadidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Ma'muriy boshqaruv tuzimida aksincha, bu bo'lishi mumkin, davlatga yangi pullarni bosib chiqarish yetarli va korxonaning barcha xodimlarini ish haqi korxonaning o'z daromadidan kattaroq bo'ladi. Jamiyatning xilma-xil guruhlarining manfaatdorligi, qiziqishlarining qarama-qarshiligi buxgalteriya uslubiyotida ko'rib o'tiladi. Masalan, agar baho joriy narx bo'yicha qabul qilinsa, bu ko'proq kreditorlarni qoniqtiradi, negaki ular ko'proq ob'ektiv nuqtai-nazardalar, chunki ularning kreditlari nima bilan ta'minlanganligi ularni qiziqtiradi Bu moddiy javobgar shaxslarni nazorat qilishni yengillashtiradi, shuningdek mumkin bo'lgan zararni o'rnini to'ldirish summasini aniq ko'rish mumkin. Aksincha tannarx bo'yicha aktivlar bahosi ma'muriyatga xo'jalik faoliyatini haqiqiy natijalari aniqroq belgilashga imkon yaratadi. Amortizatsiyaga qo'shib yozish tartibi, u yoki boshqa sarflarni tannarx tarkibiga qo'shish- bularni hammasi nazariy baholar uchun masalalardir, biroq ularning yechimi katta amaldagi oqibatlariga ega bo'lishi mumkin. Masalan Amerikalik mutaxassislar buxgalteriya hisobini odamlarni va odamlar orqali korxonalarini boshqarish asbobi deb qarashdi. Psixologik buxgalteriya ma'lumoti - bu qiziqtiradigan narsaga munosabat bildirishdir. Agar o'zgarish bo'lmasa, bu ma'lumot keraksizdir. Amerikalik olimlar ( G.Emerson, Ch. Garrison, Ch. Klark, V. Paton va boshqalar) ning buyuk muvofavqqiyati shunday metodologik usullarni standart- kost, direkt-kostinglarni yaratishi edi, bu vaqt o'tishi bilan buxgalteriyaning mahsus tarmog'i – boshqaruv hisobi shakllanishiga imkon yaratdi. Direkt-kostingning mohiyati ishlab chiqarishning doimiy o'zgaruvchan hajmlarini o'zgarishiga bog'langan bo'limlarning xarajatidan iborat, bunda doimiy sarflar kalkulyatsiya qilishda yakka mahsulotni tannarxiga kiritilmaydi. Bu tizimning nazariy asoslari

manba'larini Kimpshiteyn o'zining "Hisobda alternativlar haqida ma'lumot" kitobida metallurgiya ishlab chiqarish misolida ko'rsatdi. Biz xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchanlarga bo'lish g'oyasiga nazariy va amaliy ilovalar na'munalarini ko'ramiz. Biroq bunday klassifikatsiya belgilari aniq shakllanmagan, ya'ni bu xarajatlarni o'zaro munosabatlari va ishlab chiqarish hajmi, hajm o'zgarishidan xosil bo'lgan.

Dj. Klark bu belgini aniq shakllantirdi. 1923 yilda u ishlab chiqarish yalpi xarajatlarini doimiy va o'zgaruvchanga bo'lish zarurligini asoslab berdi. U doimiydagi asosiy kapital amartizatsiyasi, ma'muriy va texnik xodimlarni maoshiga sarflari, jixozlarni kerakli holatda ushlab turish xarajatlari, sotish tarmoqlarini saqlash va xarakatlanayotgan kapitalga oddiy foyda summalarini kiritdi. O'zgaruvchan xarajatlar - bu hom ashyo va materiallar qiymati, elektr energiya, ishchi kuchi jixozlarni ekspluatatsiya qilish va boshqa ishlab chiqarish hajmiga bog'lik holda o'zgarayotgan xarajatlardir.

Xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchanlikka klassifikatsiya qilish g'oyasi ishlab chiqarish hajmiga bog'langan holda nazariyaning mulki bo'lib qolar edi. Agarda xo'jalik amaliyotida ob'ektiv iqtisodiy sharoitlar bu klassifikatsiyani fazilatlarini joylashtirishga yo'l qo'yayotgan bo'lsa va ular bo'yicha ma'lumotlar to'planmaganda: bozorli tovar-pul munosabatlari rivojlanardi va natijada iqtisodiy jarayon va holatlar bilan boshqarish tizimida, shuningdek kalkulyatsiya qilish nazariyasida buxgalteriya hisobini ahamiyati ko'tarilardi. Bunday holatda kalkulyatsiya qilish muhim ahamiyat egallaydi, u eng avvalo tovarlarning bozor narxini foydasiga qiyoslab daromadlilikini baholash asbobiga aylandi.

## 2. Yevropa davlatlari va AQShda "Direkt - kosting" tizimining rivojlantirilishi

Yevropa va AQShda buxgalteriya hisobida paydo bo'lgan yangi tizimlarni o'rganish uchun juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borildi. Direkt-kosting g'oyasini rivojlanishiga K. Rummel ulkan hissa qo'shdi. U o'zining hissasini uch marta nashrdan chiqqan "Proporsionallik asosidagi xarajat va ishlab chiqarish kattaligidagi xarajatlarni yagona tizimi" nomli kitobida ko'rsatdi. Bu kitoblarda direkt-kosting prinsipi bo'yicha xarakatlanayotgan ma'lumotlar quroli kabi xarajat hisobidan foydalanish bo'yicha amaliy qo'llanmalar aks etildi. Shuningdek u bloklar bo'yicha xarajat hisobi tushunchasini kiritdi. Shunday qilib, u proporsional hajmga va kalendar muddatining uzunligiga ko'ra xarajatlarning bo'linishidan iborat. **Bu vaqtda proporsional hajmlar xarajatlari to'g'ri xarajat ifodalovchilari bilan munosabatda bo'ladi, bu vaqtda proporsional muddati xarajatlari tarqalmaganlari bir blokda yig'iladi.** Hisobni tuzilishi bo'yicha bloklar xarajatida Rummel eng pastki oxirgi narxni aniqlash uchun ishlab chiqarish programmalarini to'g'ri rejalashtirishni va xarajatlarni samaraliligi nazoratini alohida afzalliklarini ko'rdi. 30- yillarda "Direkt-kosting" ni takomillashtirish sohasida keyingi tadqiqotlarni Valter Rauntenshtrau, Djon, X.Ulyams va Charlz M. Kopellar olib bordi. Ular oraliq byudjeti grafiklari va ishlab chiqarishning yuqori (kritik) hajmini ishlab chiqdilar. Oxirgisi ishlab chiqarishni yuqori hajm nuqtasi deb atalgan. (BREAK EVEN POINT). Bu grafikda hajm, tannarx va foyda orasidagi aloqa yaxshi ko'rsatilgan. Ikkinchi jahon urushigacha ishlab chiqarish hisobi sohasidagi tadqiqotlar asosan nazariy xarakterda edi. 50-60 yillarda AQSh da ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilish masalalariga amaliy qiziqish o'sib boradi. Hisobning mazmuni va vazifalari o'zgaradi. Ishlab chiqarish hisobi va tushunchasi (COST ACCOUNTING) ni ko'proq boshqaruv hisobi tushunchasi (MANAGEMENT ACCOUNTING) ga almashtirila boshladilar. Bu tahminiy xarajatlar tuzilishiga, ulardan chetga og'ishni darhol aniqlashga, ishlab chiqarish xarajatlarini muntazam tahliliga va tannarx bo'yicha baholar asosida boshqaruv qarorlari variantlariga tayangan edi.

20-30 yillarda olimlar ishlab chiqarish hisobi sohasidagi eng yangi nazariy tadqiqotlar o'zini qo'llanishi va keyingi rivojlanishi uchun joy topa olmadilar. G'arbda 60 yillarda iqtisodiy sharoitlar yaratildi: ko'p sonli raqobatlashayotgan katta, o'rta, kichik korxonalarining paydo bo'lishi, aktivlarning sezilarli darajada ko'payishi ilmiy texnik revolyutsiya oqibatlariga bog'langan kuch bilan eskirgan omillarga ta'siri etishi, tadqiqotlarga sarfning juda tez o'sishi, yangi ishlab chiqarishlarni o'zlashtirish, ichki va tashqi raqobatni kuchaytirish va u bilan bog'langan xarajatlar o'sishi hamda tovarlarni sotishga tirishish, ularning reklamalari va hokazolar. Biz ishlab chiqarish hisobi tizimi konsepsiyasining o'sishi masalalari bilan direkt-kostingni paydo bo'lishi

va takomillashishi uzilgan aloqa muammosini tasodifan ko'rib chiqmayapmiz, bu hisob nazariyasi va amaliyotida direkt kosting paydo bo'lishi - uni tashkil qilish va yuritilishiga bayon qilinayotgan yangi talablarning natijasidan chiqqan ehtiyojdir. Ikkinchi jahon urushidan keyingi ishlab chiqarish xarajatlarini uchun nazoratni kuchayishi tannarx sohasidagi keyingi tadqiqotlarni rag'batlantirdi. Ishlab chiqarish xarajatlarining kritik nuqtasining topilishi bilan bog'langan hisob kitoblar keng tarqaldi. Natijada 50 yillarning boshlarida qator kompaniyalar to'g'ri xarajatlar hisobiga rivojlanib bordi, ammo endi ularga materiallar va ishchilarni ish haqidagi tashqari yana o'zgaruvchan qo'shimcha xarajatlar qo'shildi.

AQSh da shu tizim natijalari bo'yicha tadqiqotlar olib borildi, ularning hisobotlari nashr qilib borildi. 1953 yil aprelida buxgalter kalkulatorlarning Milliy assotsiyatsiyasi o'zining birinchi (spetsialno'y) mahsus hisobotini chop etdi, 1961 yilda ikkinchi amalda direkt-kosting qullayotgan 50 ta yirik firmalarni tahlil qildi; direkt-kostingdan foydalanish bo'yicha amaliy qo'llanmalar paydo bo'ldi. Jahon urushidan keyin Germaniyada G.G. Plautni "direkt-kosting" ga bag'ishlangan "chegaraviy xarajat" asari nashr etiladi. U direkt-kosting bo'yicha hisob tashkil qilayotgan firma konsultanti sifatida yozadi. Rejalashtirilgan (andozaviy, to'liq) xarajatlar g'oyasi bilan chegaraviy (chekka) xarajatlar g'oyasini o'ziga biriktirgan" andozaviy (standart) direkt-kosting" yaxshi holga kelgan tizimni yaratish manbalarida G.G.Plaut turadi. Ishlab chiqarish hisobi nazariyasi rivojida burilish momenti bo'lib, Ch.Xorngren va R. Antonilarni juft dalillariga asoslangan "har xil holatlar uchun, har xil tannarxlar" prinsiplari paydo bo'ldi. Buni tushuntirayotib R. Antoni yozadi: - Hisobotlar uchun ko'pgina kompaniyalar tannarx haqidagi malumotlarni uch turidan foydalanadi: javobgarlik markazi bo'yicha tannarx haqidagi-javobgar bajaruvchilar faoliyatini nazorat qilish va rejalashtirish uchun; to'la ishlab chiqarish tannarxi haqida normal holatlarda boshqa tezkor qarorlarni qabul qilish va narx belgilash uchun; ishlab chiqarishni to'g'ri tannarxi haqida narxlarni belgilash va operatsion holatlarda boshqa tezkor qarorlar qabul qilish, masalan agar erkin quvvatda xarakatlanish zarur bo'lsa. Mahsulot tannarxini aniqlash uchun kompaniyalar foydalanayotgan usullar sonini aytish kerak bo'lganda; AQSh ishlab chiqarish kompaniyalarini 1968 yil uchun moliyaviy hisobot bo'yicha anketalar yordamida o'rganilganda quyidagi malumotlar olindi: 30 % dan ortiq kuzatilgan kompaniyalar mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uchun ichki va undan ortiq usullarni qo'llaganlar. Kalkulyatsiya qilish usullari bilan ham xuddi shunday holat tug'ri kelyapti. Ma'lumotlar ko'rsatishicha faqat 36,7 % kompaniyalar to'la tannarxni kalkulyatsiya qilishda foydalanadi, ko'pchilik kompaniyalar boshqa usullarni qullaydilar. Bunday ishlab chiqarish hisobini o'sishi ob'ektiv iqtisodiy sharoitlar bilan bog'langan, ya'ni korxonalar bozorga moslashishiga qiyinchilik oshib borishi bilan, shuningdek sifatga ta'sir qilayotgan boshqarish qarorlari tannarx haqida va har xil turdagi ma'lumotlarga yangi talablar qo'yishi kabilar bilan bog'langan. Boshliqlar talablarini qodiradigan ma'lumotlar olish turining usullaridan biri "Direkt kosting" dir. Direkt kosting rivojida yana bir pog'ona K. Ane taklifi doimiy xarajatlar blokining bo'linishi: buyumga doimiy xarajatlar; buyum guruhi bo'yicha doimiy xarajatlar; doimiy xarajatlarning paydo bo'lish o'rni; ishlab chiqarish bo'linmalarining doimiy xarajati; korxonaning doimiy xarajati; qoplash summasi hisobini ko'p pog'onali tizimi yoki chegaraviy xarajatlar paydo bo'ldi. Hozirda direkt-kosting bir qancha variantlarda qo'llaniladi: klassik direkt-kosting to'g'ri (asosiy) xarajat (hammasi o'zgaruvchan) bo'yicha kalkulyatsiya qilish ko'zda tutilgan; o'zgaruvchan xarajatlar tizimi-kalkulyatsiya qilish o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha amalga oshiriladi, ularga tug'ri sarflar kiradi. Ishlab chiqarish quvvati, ish bilan ta'minlanishida bog'langan xarajatlar hisobi tizimi, kalkulyatsiya qilishda barcha o'zgaruvchi sarflar ishlab chiqarish quvvati foydalanish koeffitsenti bilan munosabatida aniqlangan doimiy sarflar. Umuman olganda, to'liq kalkulyatsiya qilinmaydi, balki qisman tannarxni aniqlashdir.

### **3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida "Direkt-kosting" tizimini qo'llashning zarurligi va qulayliklari**

1992 yilning yozida boshqaruv hisobi bo'yicha Rossiya-Amerika qo'shma seminarida shaxsiy suhbatda o'z fikrini aytgan AQSh lik professor Reya Vam der Vilrd guvohligicha, taxminan amerika korxonalarining yarmi shunday yoki boshqacha holda o'zining hisobida direkt-kosting prinsiplaridan foydalanadi. Boshqaruv hisobi bo'yicha har qanday amerika darsliklarida bu tizim ma'lum darajada detallari bilan tasvirlanadi.

Hozirgi davrda direkt-kosting



Germaniyada ko'proq yirik korxonalarda keng tarqalgan. Bu yerda uni 54 % korxonalar qo'llaydi. Ayniqsa bu tizim oziq-ovqat sanoatida (71,4 korxonalar) va qurilishda (67,4 korxonalar) ommaviydir. G.Benker P.Shtutgerta rayonida qayta ishlash sanoati korxonalarida o'tkazilgan tanlab tekshirish natijalarini keltiradi, bu yerda ishchilar soni 50 dan tortib 1000 ta odamni tashkil etadi: bu korxonalarni 40,8% da direkt-kosting tizimi bilan moslashgan joylarda paydo bo'lgan xarajatlar hisobi olib boradi va 28,9 % da buyumni tannarxi "direkt-kosting" tizimi bo'yicha kalkulyatsiya qilinadi. 1988 yilda D.Link tomonidan nashr etilgan har xil strukturadagi ham katta, ham kichik, shimoliy nemes korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etishi haqidagi tadqiqotlarida aytiladi, anketa o'tkazilganlarni 65,7% buyumlar bo'yicha direkt-kosting asosidagi natijalari kalkulyatsiya qilinadi.

G. Kyuller tomonidan o'tkazilgan so'rovlar (1983y) shuni ko'rsatadiki, korxonalarining 40% ko'p pog'onali direkt-kostingni ishlatadilar. Avstriya olimi professor G. Zeyxt sanoat korxonalarini anketasining shunday natijalarini keltiradi; so'ralgan korxonalarni 10% i ishlab chiqarish hisobi tizimiga umuman ega emas, 50% i to'la tannarx hisobi bilan parallel chegaraviy xarajatlar (direkt-kosting) hisobidan qo'llaniladi va 40% ida faqat to'la tannarx hisobi tashkil qilmoqda.

60-yillarning oxirida direkt-kosting Vengriyaning sanoat korxonalarida va birlashmalarida qo'llanilardi. Bu masala yetarli darajada I.S.Matskevichyus hamda S. A. Stukov tomonidan yaxshi o'rganilgan; Ularning monografiyalarida bu haqda yozilgan yozilgan. Uni biz uchun qiziqarli shuki, bu mamlakat yaqin vaqtlargacha ham sotsialistik tizimda edi. Vengriyada 1968 yil iqtisodiy islohotgacha barcha egri sarflar ajratib olinib, sanoatning hamma sohalarigacha mahsulotni to'la tannarxini kalkulyatsiya qilish majburiy edi. Ular u yoki bu bazada buyumlar orasida proporsional bo'linishi kerak edi. Butun Venger buxgalteriya hisobi tizimi ham, hisob tizimi ham qisman tannarx kalkulyatsiya qilish o'zgarishiga ta'sir qilgan muhim faktor bo'lib, 1968 yilda boshlangan iqtisodiy reforma bo'lib qoldi, u mamlakatni butun iqtisodiy boshqaruv tizimini qo'zg'otib yubordi. Korxonalarining mustaqilligi va javobgarligini oshishi, ularni iqtisodiy huquqlarini kengayishi, boshqarishni iqtisodiy uslublarini takomillashtirish va keng yoyish reformaning muhim elementlari bo'lib qoldi. Iqtisodiyotda bu o'zgarishlar buxgalteriya hisobi tizimiga ta'sir qilmasligi mumkin emasdi. Venger korxonalariga kalkulyatsiya qilish uslublarini o'zlariga tanlash va egri Xarajatlarni taqsimlash, taqsimlash bazalari, shuningdek vaqti-vaqti bilan kalkulyatsiya tuzishni aniqlashni o'zlariga tanlab olish boriladi. Reformaga qadar to'la tannarx hisoblash tartibining mavjudligi venger iqtisodchilarining fikricha muhim kamchiliklarga ega edi: har qanday" mahsulot tannarxiga egri xarajatga qo'shilish usuli 100% aniq bo'la olmaydi, shuning uchun kalkulyatsiya qilish natijalari baxsli; egri xarajatlarni bo'lishni bajarish juda og'ir. Shu sababli yangi mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilishni asosiy omillari qayerda yangicha tannarx tarkibi asoslangan bo'lsa **har qanday tushuncha kiritilgan**" deb qabul qilingan edi-tannarxning tushishi qisqa vaqtli kalkulyatsiya tuzish kvartal (chorak bo'yicha) shart emas, deb qabul qilindi. Iqtisodiy islohotning chuqurlashishi bilan bozor munosabati elementlarining kengayishi Vengriyani ishlab chiqarish hisobida keyingi o'lchovlari bilan bog'lagan. 1978 yilda Vengriya Moliya Vazirligi materiallar va narxlar davlat komiteti bilan birga kalkulyatsiya qilishning yangi tartibini o'rnatdi, shunga muvofiq rejali hisobot kalkulyatsiya qilish sxemasini va foydalanilgan narxlashtirishni (senaobrazovaniya) kalkulyatsiya qilish bir shaklga keltirilgan edi. Ushlab turish bo'yicha xarajatlar hisobidan mashina va jixozlarni ekspluatatsiya qilishga ajratilgan sex (bo'lim) xarajatlaridan to'g'ri xarajat ko'lamini kengaytirdilar. O'zlari egri bo'lgan umum sex xarajatlari tannarxdan ajratilgan edi va umumzavod va umumbirlashma xarajatlari bilan birga yalpi foyda hisobiga qoplanadigan bo'linmas xarajatlar kategoriyasini tashkil etdi. 1985 yil 1 yanvardan mashina jixozlarni ekspluatatsiya qilib ushlab turish bo'yicha xarajatlar tarkibidan amortizatsion chegirma ajratilgan edi, ular ham bo'linmas xarajatlariga kiritilgan edi. Shunday qilib chegaralangan tannarx tarkibida faqat to'g'ri xarajatlar qoldi, shuning uchun oxirgi vaqtlarda hamma "to'g'ri tannarxni" kursata boshladilar. Texnik ishlarning hajmi kamayishi shunga olib keldi, hozir ko'p korxonalarda kalkulyatsiya qilish, tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini baholash uchun yarim fabrikatlarni xususiy ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar, shu bilan birga to'g'ri xarajatlar doirasida yilda (yil oxirida) bir marta o'tkaziladi. Oxirgi yillar davomida Vengriyada iqtisodiy siyosat bozor munosabati shakllanishiga yo'naltirilgan. Iqtisodiy va moliyaviy boshqarish tizimida sezilarli

islohot va o'zgarishlar bo'lmoqda, bozor munosabatlarini tartibga soladigan qonunlar majmui qabul qilindi. Bu turdagi o'zgarishlar hisob tizimida ham aks etadi, iqtisodiy faoliyatning yangi sharoitga moslashishga olib boradi. G'arbda zamonaviy hisob rivojlanish pog'onasi uchun keng ma'noda o'ziga xosligi hususiy hisob integratsiyasi jarayoni tahlili korxonani boshqarish yagona tizimiga, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, hammasidan ham kompyuterlarni qo'llashga asoslangan va yanada ko'proq mo'ljalnayotgan firma rivojining iqtisodiy va moliyaviy strategik maqsadlarni tanlash xosdir. Shunday tizimlardan biri - chet ellarda yetarli darajada keng tarqala olgan "**kontrolling**" tizimidir. Bu tizimni amaliy ishlashi uchun zarur sharoit va asosiy elementlardan biri "**direkt-kosting**" tizimi bo'yicha xarajat va natijalar hisobini tashkil etish lozimligidir. Iqtisodiy integratsiya jarayoni transnatsional korporatsiyalarni tashkil etilishi va xarajatlari har-xil turdagi qo'shma korxonalar va firmalarni yuzaga kelishi xalqaro buxgalteriya andozalarni ishlab chiqish kerakligini taqazo etdi. Bugunda direkt-kosting g'oyasi xarajatlarni aks ettirishga tegishli bo'lgan buxgalteriya hisobini xalqaro andozalarda va moliyaviy natijalarni shakllanishida o'z aksini topdi. Bu andozalarga ko'ra hisobot davrining uzunligiga ko'proq bog'langan va korxonalar boshqaruvi bilan aloqada bo'lgan xarajatlarni buyumlarning tannarxiga qo'shmaslik mumkin va qoplash korxonaning yalpi daromadidan amalga oshirilishini esda saqlash kerak. Shunday qilib "direkt-kosting" ni quydagi asosiy holatlarini ajratish mumkin:

1. Boshqaruv hisobi "direkt-kosting" tizimi ishlab chiqarish hajmiga munosabatlar bo'yicha xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchanlarga klassifikatsiya qilish bazasida vujudga keldi. Bu klassifikatsiya faqat nazariy ahamiyatga ega edi, uning afzalliklari realizatsiya qilish uchun jo'natishga ob'ektiv iqtisodiy qulay axvol tug'ulguncha, ya'ni bir-biriga o'xshamaydigan o'sish, tovar ishlab chiqaruvchilar orasida raqobat, sotish bozorlari uchun kurash va yangi bozor segmentlarini izlash, ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi, yangi mahsulotni o'zlashtirish va chiqarish, reklama qilish, bozorni o'rganish va rivojlangan bozor sharoitlarida yakka tovar ishlab chiqaruvchilarning mo'ljal qilishining qiyinlashishi sharoitida sezilarli edi.

2. Murakkab bozor jarayonlarida bir tomondan ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sotish tebranishi xarakterlanadi, ularning umumiy hajmida doimiy xarajatlar ulushi kattalashishi boshqa tomondan, buyumlar tannarxi xatti xarakteriga sezilarli ta'sir etadi, demak foydaga ham. Direkt-kosting tizimi xarajatlarining o'zgaruvchan qismigina tannarxga kiritishni nazarda tutadi.

3. Bozor munosabatlariga o'tish davrida mamlakat korxonalarida "**direkt kosting**"-tizimining qo'llanishi nuqtai nazaridan Vengriya tajribasi qiziqarlidir. Hisobda mana ikki o'n yillik davomida "**direkt-kosting**" elementlaridan samarali foydalanishmoqda va ularni qo'llash sohalari kengayyapti.

4. Rossiya bozor munosabatlari rivojlanish bosqichida turibdi. Shu vaqtgacha bizning mamlakatimiz korxonalarida faqat mahsulotlar ichida qo'shimcha xarajatlarni bo'lish bilan to'la tannarx hisobi qo'llanildi, shuning uchun markazlashgan narxlashtirish sharoitlarida bu o'zini oqlagandi. Davlat korxonalarini xususiylashtirish mulkchilikning turli shakllaridagi bir biriga o'xshamaydigan korxonalar, erkin narxlashtirish mexanizmlarining qo'shilishi va chiqarayotgan mahsulotlar assortimentini mustaqil rejalashtirish, boshqa mamlakatlar bozorli iqtisodiyoti bilan tanishish tufayli va asta sekin "direkt-kosting" ga talab o'sib boradi, bundan hisobning samaradorlik bilan bog'liq bo'lgan keyingi o'sishi bog'langan bo'ladi. Shunday qilib, keyingi ob'ektiv sharoitlarda Direkt-kosting qo'llanilishi bozor iqtisodiyotining shakllanishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi, chunki bu buxgalteriya hisobiga talablarning o'zgarishiga olib boradi, eng avval uning tezkorligi, moslashuvchanligi oshishi va qo'yilayotgan ma'lumotni tahlil qila bilish yo'nalishlariga, butun hisob oldida turgan vazifalarning o'zgarishi ishlab chiqarish hisobini tuzilishi va vazifalarni o'zgarishlarga olib boradi, natijada uni "direkt-kosting" tizimi bo'yicha qayta tuzishning ob'ektiv imkoniyati vujudga keladi.